

SHARQDA SHAXS RIVOJLANISHIDAGI QARASHLAR

Yusupova Feruza Ravshanjonovna
"Hayot xaritasi" ayollar markazi rahbari

Yoshlar tarbiyasida asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimiz boy merosiga tayanaylik.

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: Shaxs sifatida shakllanish, baxtli hayot kechirish istagi har bir insonning asl tabiatiga xos. Sharqda shaxsning rivojlanish manbalarini dinlar, falsafa va urf-odatlar tashkil qiladi. Shaxs rivojlanishga: irsiyat, muhit hamda tarbiya ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada sharqda shaxsning shakllanishidagi qadimiy tasavvurlar, islomiy qadriyatlar, tasavvuf va sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya qarashlarini o'ranib chiqilgan.

Аннотация: Стремление к личностному развитию, к счастливой жизни заложено в самой природе каждого человека. На Востоке источниками личностного развития являются религии, философия и традиции. На личностное развитие влияют: наследственность, окружающая среда и воспитание. В данной статье рассматриваются древние идеи, исламские ценности, суфизм и образовательные взгляды восточных мыслителей на формирование личности на Востоке.

Abstract: The desire to develop as a person, to live a happy life is inherent in the true nature of every person. In the East, the sources of personal development are religions, philosophy and traditions. Personal development is influenced by: heredity, environment and upbringing. This article examines the ancient ideas, Islamic values, Sufism and the educational views of Eastern thinkers on the formation of a person in the East.

Hayot bor ekan oila bor, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Insoniyat hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Shunday ekan, farzandlarimizda milliy ma'naviy qadriyatlarimizdan o'rinli foydalanish, yoshlarda ma'naviyatni, go'zal sharqona odobni tarbiyalashga xizmat qiladi. Inson shaxsini, uning ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari muhim vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi boy ma'naviy, madaniy qadriyatlarga ega. Ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazishgan. Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan farzandlar odob-axloqda, aql-zakovatda, mehr-oqibat va vatanparvarlikda, jasurlik, mardlikda nom qozongan va eng asosiysi shaxs sifatida rivojlanishgan.



Shaxs – (individ) ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatda o'zligini anglagan holda jamiyatda shakllanuvchi hamda ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zida mujassam etgan yuksak rivojlangan inson. Shaxs rivojlanish nazariyalari insonning butun umri davomida psixik, ijtimoiy va jismoniy o'zgarishlarni o'rganadi. Shaxs rivojlanishiga 4 xil qarash bilan yondashiladi:

- Psixoanalitik yondashuv (Z.Freyd, E.Erikson): ichki ziddiyatlar va ijtimoiy munosabatlar ta'sini o'rganadi;
- Kognitiv yondashuv (J.Piaje): bola tafakkuri va dunyoni anglash qobiliyatini o'rganadi;
- Ijtimoiy-madaniy yondashuv (L.Vygotskiy): shaxsga ijtimoiy muhit, muloqot va madaniy muhit ta'sirini o'rganadi;
- Faoliyat yondashuv (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev): shaxsga faoliyat turlari(o'yin, o'qish, mehnat) ta'sini o'rganadi.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga 3 omil ta'sir etadi:

1. Irsiyat: Biologik asoslar.
2. Muhit: Ijtimoiy o'ralganlik.
3. Tarbiya: Maqsadli ta'sir ko'rsatish.

Sharqda shaxs shakllanishi qadimiy tasavvurlar, islomiy qadriyatlar, tasavvuf va sharq mutafakkirlarining (Farobiy, Ibn Sino, Navoiy) ta'lim-tarbiya qarashlariga asoslangan. Bunda insonning pokligi, komilligi, ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy intellektual rivojlanishi hamda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishiga muhim ahamiyat berilgan. Shaxs masalasiga oid fikrlar ilk yozma yogorlik hisoblangan “Avesto” kitobida axloqiy asos uch narsa “Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal” ekanligi ta'kidlanadi.

Insonni komillikka eltuvchi qarshlar bilan shug'ullangan A.Nasafiy aytishi bo'yicha: “Bilginki komil inson deb shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilginki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi ahloq va maorif”.

Adabiyotning mumtoz namoyondalaridan biri Muslihiddin Sadi Sheroziy fikricha: “Oila shaxsning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada ota farzandlarini shaxs sifatida shakllanishida ma'suliyatli tarbiyachidir”. Ruhiy tarbiya ilm ustozlaridan Abdulxoliq G'ijdivoniy insonning bu dunyodagi eng pirovard vazifasi- komil inson darajasiga yetish bo'lishi, butun umrini yaxshilikka sarflashi darkorligini aytganlar.

Al-Xorazmiyning fikricha shaxsning komilligi uning kamtarlik fazilatiga ega ekanligidir. Naqshbandiya tariqati har bir insonning halolligi, pokligi, samimiyligi, iymonligi, e'tiqodliligi, oliyanobliligi, o'z mehnati bilan hayot kechirishi inson ma'naviy kamolotining asosi deb biladi. Sharqda shaxsning rivojlanish manbalari juda xilma-xil va murakkab bo'lib, ularning asosini dinlar, falsafa va urf-odatlar tashkil qiladi. Hozirgi globallashuv jarayonlari, texnologiyalar jadal rivojlanishi va madaniyatlararo aqloqalar kengligi sababli Sharq jamiyatida shaxserkinligi gender tengligi, insonb huquqlari kabi tushunchalar ham muhim kasb etmoqda. Shu bilan





birga, an'anaviy qadryatlarning-oilaviy munosabatlar, kattalarga hurmat qilish, jamoaviy manfaatlarni ustun qo'yish va kamtarlik kabi me'zonlarning susayib qolishi yoki teskari reaksiya sifatida qayta mustahkamlanishi kuzatilmoqda.

Inson shaxs sifatida ijtimoiy munosabatlar, faoliyat va madaniyatning faol subyekti bo'lib, o'z individualligi, ma'naviy-axloqiy dunyosi hamda komillikka intilishi bilan ajralib turadi. Shaxs ijtimoiy muhitda rivojlanadi, o'zligini anglaydi, ijtimoiy rollarni bajaradi va jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, sharqda insonni shaxs sifatida shakllanishidagi asosiy vazifa-yosh avlod ta'lim-tarbiyasida milliy qadriyatlarimiz bilan zamonaviy hayot tarzi o'rtasida muvozanatni shakllantirish, tarixiy-madaniy go'zal merosimizni asrab qolish, hozirgi talablar bilan uyg'unlikdagi ma'naviy-ahloqiy an'analarni boyitishdan iborat. Milliy qadriyatlar va oilaviy tarbiya, bir tomondan, shaxsiy rivojlanishga, ikkinchi tomondan esa jamiyatda xurmat va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Inson qalbining go'zalligi faqat ta'lim emas, ko'proq tarbiya mahsuli hamdir. Tarbiyaning eng yaxshisi bu ibratdir. Hozirda farzamlarimizning doimiy ilm olishi, ruhiy va jismoniy tarbiyalanishi, pok va sof fikrlashi, o'z hayot yo'lini topishi komil inson bo'lib rivojlanishining asosidir.

Inson shaxs sifatida — bu ijtimoiy munosabatlar, faoliyat va madaniyatning faol subyekti bo'lib, o'z individualligi, ma'naviy-axloqiy dunyosi hamda komillikka intilishi bilan ajralib turadi. Shaxs ijtimoiy muhitda rivojlanadi, o'zligini anglaydi, ijtimoiy rollarni bajaradi va jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. “Ekin va keng, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” 2016.
2. Abdullayeva Sh. A. “Pedagogika” 2012.
3. Davletshin M.G, To'ychiyeva S.M. “Umumiy psixologiya” 2002.
4. www.thelearningweb.net
5. www.intelibrary.com.
6. www.glef.org.

